

## O'ZBEKLAR MILLIY PSIXOLOGIK QIYOFASINING SHAKLLANISHIDA ISLOM OMILI

*Atadjanov Mamirjon Yusupovich,  
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent, Farg'ona davlat universiteti*

*Annotatsiya: Dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalari asoslanadi va yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi xususiyatlarga tayanadi. Odamlarni halollik va poklik, mehr-shafqat, birodarlik va bag'rikenglikka da'vat etadi. Barcha dinlarda inson hayotining mohiyati, mazmuni, kishilar o'rtasidagi siyosiy-huquqiy, axloqiy munosabatlarni tenglik va adolat mezonlari asosida o'rnatish masalasi o'z aksini topgan. Din madaniyatning barcha turlarini (ilm-fan, falsafa, huquq, axloq kabi) o'zida mujassamlashtirgan va ularga o'z ta'sirini o'tkazgan, qadim-qadimdan aksariyat ma'naviy qadriyatlarini o'zida birlashtirib kelgan.*

*Kalit so'zlar: din, diniy dunyoqarash, falsafa, axloq, diniy qadriyatlar, halollik, poklik, mehr-shafqat, birodarlik, bag'rikenglik, inson hayotining mohiyati, mazmuni, axloqiy munosabatlar.*

## ИСЛАМСКИЙ ФАКТОР В ФОРМИРОВАНИИ НАЦИОНАЛЬНОГО ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗА УЗБЕКОВ

*Атаджанов Мамирджон Юсупович -  
кандидат психологических наук, доцент Ферганский государственный университет*

*Аннотация: Все религии мира основаны на идеалах добра и опираются на такие качества, как добро, миролюбие, дружба. Призывает людей к честности и чистоте, доброте, братству и терпимости. Во всех религиях находит отражение сущность, смысл жизни человека, вопрос установления политико-правовых, нравственных отношений между людьми на основе критериев равенства и справедливости. Религия вбирает в себя все виды культуры (такие, как наука, философия, право, этика) и оказывает на них свое влияние, с древних времен объединяя большинство духовных ценностей.*

*Ключевые слова: религия, религиозное мировоззрение, философия, этика, религиозные ценности, честность, чистота, сострадание, братство, терпимость, сущность, смысл жизни человека, нравственные отношения.*

## ISLAMIC FACTOR IN THE FORMATION OF THE NATIONAL PSYCHOLOGICAL IMAGE OF UZBEKS

*Atadjanov Mamirjon Yusupovich,  
candidate of psychology, associate professor Fergana State University*

*Abstract: All religions of the world are based on the ideals of goodness and rely on such qualities as kindness, peacefulness, friendship. He calls people to honesty and purity, kindness, brotherhood and tolerance. All religions reflect the essence, meaning of human life, the issue of establishing political, legal, moral relations between people based on the criteria of equality and justice. Religion absorbs all kinds of culture (such as science, philosophy, law, ethics) and exerts its influence on them, uniting most spiritual values since ancient times.*

*Keywords: religion, religious worldview, philosophy, ethics, religious values, honesty, purity, compassion, brotherhood, tolerance, essence, meaning of human life, moral relations, equality, justice.*

**KIRISH.** Din ijtimoiy hayotni, voqelikni, uning hodisalarini o'ziga xos tarzda in'ikos ettiruvchi ijtimoiy ong shakllaridan biri. U dastlab hayotning ibtidoiy davrida yashagan insonlarning dunyoqarashini aks ettirgan. Din dunyo, inson va boshqa mavjudotlarning yaralishi va kelib chiqishi, hayotning ma'no-mazmuni, insonning yashashdan ko'zlagan maqsadi kabi masalalarga ilohiy nuqtai nazardan javob beruvchi dunyoqarash shakli sifatida muhim ijtimoiy vazifani ado etib kelmoqda. Din diniy dunyoqarashni, diniy marosimlarni, shuningdek, diniy tuyg'uni o'z ichiga oladi. Din madaniyatning barcha turlarini (ilm-fan, falsafa, huquq, axloq kabi) o'zida mujassamlashtirgan va ularga o'z ta'sirini o'tkazgan, qadim-qadimdan aksariyat ma'naviy qadriyatlarini o'zida birlashtirib kelgan.

Dinning milliy psixologik qiyofani shakllantiruvchilik omili sifatidagi ahamiyati shundaki, dunyodagi

dinlarning barchasi ezgulik g'oyalariga asoslanadi va yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi xususiyatlarga tayanadi. Odamlarni halollik va poklik, mehr-shafqat, birodarlik va bag'rikenglikka da'vat etadi. Barcha dinlarda inson hayotining mohiyati, mazmuni, kishilar o'rtasidagi siyosiy-huquqiy, axloqiy munosabatlarni tenglik va adolat mezonlari asosida o'rnatish masalasi o'z aksini topgan. Musulmon Renessansi davrida Islom ilm-fanning rivojlanishiga, buyuk kashfiyotlarga turtki berdi, shu davrda Xalifalik hukmdorlari din va fanning uyg'unligini Qur'on ta'limotiga asoslanib teran tushundilar. Keyinchalik Al'bert Eynshteyn bu jarayonni shunday ifodaladi: "Dinga asoslanmagan fan oqsoq bo'lsa, fanga asoslanmagan din so'qirdir".

Vatanimiz hududida islom dini qaror topganiga qadar zardushtiylik, buddaviylik, moniylik, xristianlik, mazdakiylik, shomoniylilik kabi dinlar ham mavjud bo'lgan. Ular negizida o'sha davrda barchasining sintezi natijasida betakror madaniyat vujudga kelgan. Zardo'shtiylik ta'limoti bo'yicha ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi doimiy kurashda oraliq yo'l yo'q, shuning uchun har bir odam bu kurashning u yoki bu tomonida ishtirok etishga majbur. Bu dinning uch tayanchi bo'lib, ular fikrlar softligi, so'z sobitligi, amallarning insoniyligidan iborat. Bu jihatlar zardo'shtiylikda «ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu ish» tarzida ifodalangan.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Milliy tafakkur, axloq va qadriyatlar millatning o'ziga xos qiyofasining muhim belgilaridir. Bularning barchasi faqat o'tmish tajribasiga, asrlar davomida yig'ilgan ma'naviy boylikka asoslanadi. Islom dinini o'zbek xalqi ma'naviyati, deb e'tirof qilinishi, diniy axloq masalalariga keng e'tibor berilayotganligi o'zbeklar ma'naviy qudratini oshirishning bosh omili bo'lib qoldi. Ma'naviy qudratli millatgina kelajakka ishonch bilan qaraydi, turli silsilalardan tubanlikka yuz tutmay o'ta oladi. Hozirgi kunda at-Termiziy, Imom-Buxoriy, Naqshband kabi ma'naviyatimiz ustunlari, Ibn-Sino, Forobiy, Navoiy kabi buyuk tafakkur egalari, Amir Temur, Bobur kabi donishmand hukmdorlar ruhiga ko'rsatilayotgan izzat-ehtirom, o'zbek millatining ma'naviy ehtiyojini ular qoldirgan boy meros, turli diniy falsafiy ta'limotlar tushunchalari vositasida qondirish o'zbeklarning millat sifatida qaddini rostlashi, o'z-o'zini anglashi, o'tmishdagi olamshumul ma'naviy-madaniy obro'si vositasida, jahon hamjamiyatida eng yuqori pog'onalarga olib chiqish vazifasini amalga oshirishiga shak-shubha yo'q.

Milliy mustaqillik psixologiyasi doirasida madaniyatning shaxs psixologiyasiga ta'siri masalasini ko'rib chiqishda uning diniy tasavvurlar bilan bog'liqligini sezmaslik mumkin emas, qolaversa ko'plab dinshunoslar inson hayotini boshqaruvchi qadimiy normalarga ilohiy tus berishadi. Qadim-qadimdan insoniyat madaniyati diniy asosga quriladi, deb hisoblangan.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, din qadrsizlanishi bilan jamiyatda madaniyat degradatsiyasi kuzatiladi. Ayrim ta'limotlarda diniy omilga shunday izoh beriladi: inson ojiz va yashab qolish uchun u ko'p narsadan voz kechishi kerak. Odam taraqqiyot natijasida uning istaklarini ma'n qiladigan hamjamiyatga kirishi kerak. Eslatib o'tganimizdek, odam yashab qolishi uchun o'zining ko'pgina mayllaridan voz kechishi kerak. Odamni o'z mayllaridan voz kechganligi uchun taqdirleydigan, uni tabiat hodisalari va boshqa individlarning tajovuzlaridan himoya qiluvchi omil kerak bo'ladi. Xuddi shu funktsiyani din bajaradi. Odamlar o'z mayllaridan voz kechishgani uchun xudodan mukofot olishga umid qilishadi va nihoyat xudoning obro'si ularga o'zlarining ichki ziddiyatlaridan qutilishlariga yordam beradi. Ko'rib turibmizki, din madaniyatning asosiy bo'laklaridan biridir. Freyd dinni ommaviy nevroz, deb atagan. Gap shundaki din o'zining ko'p qoidalari bilan yopishqoq nevroitik holatni eslatadi. Masalan, nevroitik qandaydir harakatlarni amalga oshirmaslikdan qo'rqsa, haqiqiy dindor ham xuddi shunday, qandaydir diniy marosimni amalga oshirmaslikdan qo'rqadi. Farq shundaki nevroitik o'zining doimiy qaytariluvchi mashg'ulotlari mazmunini tushuntirib bera olmaydi, dindor esa o'zining teologik bilimlaridan kelib chiqib u yoki bu marosimlarni izohlay oladi. Shunday qilib, ayrim e'tirozlar bilan dinni ijtimoiy nevroz, deb atash mumkin. Xususiy nevroz ijtimoiy nevrozdan ko'ra xavfliroq, u bemorning jismoniy holatiga ta'sir qiladi, ijtimoiy nevroz esa butunlay xavfsizdir. Xuddi shunday dinni anti nevroz, deb ham atash mumkin, chunki u xususiy nevrozlarni eritishga va ijtimoiy ziddiyatlarni yumshatishga yordam beradi. Dinning buzilishi madaniyatning keskin tanazzuliga sabab bo'ladi.

#### NATIJALAR

Milliy psixologik qiyofaning shakllanishida diniy omilning ahamiyati so'fizm g'oyalarining ta'siri misolida yaqqol ko'rinadi. So'fizm diniy-falsafiy va adabiy oqim sifatida VIII-asr oxirlarida Arab mamlakatlarida vujudga keldi va X-asrlarga kelib O'rta Osiyoda keng yoyildi. Bu yerda uning qator

tariqatlariga asos solgan jahonga mashhur namoyondalari: Xoja Abduholiq G'ijduvoni, Ahmad Yassaviy, Xoja Ali Romitoni, Said Mir Kulol, Xoja Hazrat Bahouddin Naqshbandlar yetishdilar.

So'fizm ta'limotining asosiy mavzui inson va uning Allohga bo'lgan munosabatidir. So'fiylikda ma'naviy kamolotga erishishning asosiy bosqichlari: shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat xisoblanadi.

So'fizmdagi kamolotga erishishning uch bosqichi bilishning uch bosqichiga: birinchisi ishonchli bilim, ikkinchisi to'la ishonch, uchinchi haqiqiy ishonchga mos keladi. Har bir bosqich juda katta mashaqqatlardan iborat, bulardan o'tish uchun oshiq kuchli ruhiy zo'riqlashlarga bardosh bera olishi kerak, faqat axloqiy va ma'naviy pok odamgina bu mashaqqatlarga bardosh bera olishi mumkin. Shuning uchun so'fiylar ilm bilan etika, aql bilan hissiyot, haqiqiy haqiqat bilan adolatli haqiqat o'rtasidagi bog'liqlikni shart kilib qo'yg'alar.

Bahouddin Naqshband so'fiylar, darveshlarning tarkidunyochilik qilishlari, bu dunyo ishlaridan etak silkilab, qo'lni yuvib qo'ltiqqa urishlariga qarshi chiqdi. Ularni o'zlarining osoyishta, bexavotir yashashlari, birovlarining qo'lga qarab qolmasliklari uchun halol mehnat va hunarmandchilik bilan shug'ullanishga chaqirdi. U darvesh, so'fiylarning ham mehnat, kasb, hunar bilan shug'ullanib, ham ilm ma'rifat olishini yoqladi.

Ayni paytda O'zbekistonda Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan vijdon erkinligi asosida diniy omil milliy psixologik qiyofaning tarkibiy qismlaridan biri sifatida birlashtiruvchi kuchga aylanishi uchun katta ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayondagi eng muhim qadam diniy bag'rikenglik g'oyasini amalga oshirishdir. Diniy bag'rikenglik g'oyasi – xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, oliyjanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi.

Hozirgi zamonda dinlararo bag'rikenglik g'oyasi nafaqat dindorlar, balki butun jamiyat a'zolarining ezigulik yo'lidagi hamkorligini nazarda tutadi hamda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi.

Azal-azaldan ona yurtimizda islom, nasroniylik, iudaviylik kabi dinlar yonma-yon yashab kelgan. Asrlar mobaynida yirik shaharlarda masjid, cherkov va sinagogalarning mavjud bo'lishi, turli millat va dinga mansub qavmlarning o'z diniy amallarini erkin ado etib kelayotgani buning tasdig'idir. Tariximizning eng murakkab, og'ir davrlarida ham ular orasida diniy asosda mojarolar bo'lmagani xalqimizning dinlararo bag'rikenglik borasida ulkan tajriba to'plaganidan dalolat beradi.

#### MUHOKAMA

O'zbekistonda erkin fuqarolik jamiyati, dunyoviy davlat barpo etilmoqda. Qurilayotgan jamiyatning tamoyillari, huquqiy asoslari ishlab chiqilgan va xalqimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Davlat qonuniy asosda barcha dinlarga, barcha e'tiqod egalariga teng imkoniyatlar yaratib bergan. Diniy tashkilotlar bilan munosabatlarning qonun asosida, ularning haq – huquqlarini hurmat va himoya qilish asosida olib borilayotgani e'tiqod erkinligini amalda ta'minlamoqda. Bu – xalqimizning xohish-irodasi bilan tanlab olingan to'g'ri yo'ldir.

Yuqorida qator dalillar asosida dinning madaniyatning o'zagi, ma'naviyat ustuni, odamlarda axloqiy fazilatlar manbai sifatidagi ahamiyatini tasdiqladik. Aynan shu jihatlari bilan bugungi kunda muqaddas Islom dinimiz o'zbeklar psixologik qiyofasining shakllantiruvchi omillaridan biri vazifasini bajarmoqda. Asrlar davomida milliy mentalitetimizda, madaniyatimizda, ma'naviy-axloqiy dunyoqarashimizda shakllangan buyuk qadriyatlarimiz diniy tasavvurlarimiz bilan uyg'unlashgan holda avlodan-avlodga uzatib kelinmoqda. Bu qadriyatlarni avaylab-asrash, boyitish va kelajagimiz poydevori bo'lgan, o'sib kelayotgan yosh avlod shaxsi qurilmasiga mustahkam joylashtirish ta'lim va tarbiya tizimining asosiy vazifasi bo'lib hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 5-jild. – Toshkent. O'zbekiston, 2020. – 456 B.
2. Karimov I.A. Olloh qalbmizda, yuragimizda. T., «O'zbekiston», 1999.
3. Avloniy, Abdulla. Turkiy guliston yohud axloq-T. O'qituvchi, 1992 - 160 bet.
4. Atadjanov M. Milliy psixologik qiyofa xususiyatlarining shakllanish omillari va namoyon bo'lish sohalari, Interpretation and researches 1 (5), 2023.
5. Bromley Yu.V. Ocherki teorii etnosa. M. Izd. «Nauka». 1983.
6. Islam v stranax blijnego i Srednego Vostoka: Sbornik statey// Glavnaya redaktsiya Vostochnoy literaturi.M., 1982. 238s.
7. Materiali po istorii progressivnoy obshchestvenno-filosofskoy misli v Uzbekistane / Pod red. I.M. Muminova, M.M. 'ayrullaeva T.1-2.1976 g. 588.
8. Otajonov M. Psixoanaliz asoslari (oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma), Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 2004.
9. Fish Radiy. Djalalleddin Rumi. M., 1987. 267 s.